

**TOSHKENT SHAHRINING QADIMIY YOSHINI ANIQLASHDA
M. E. MASSON VA UNING ILMIIY MAKTABI VAKILLARINING
O‘RNI**

Mirzayev Komiljon Mamirjonovich

Qarshi davlat texnika universiteti

“Ijtimoiy va gumanitar fanlar”

kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahrining qadimiy yoshini aniqlashda M.E. Masson va uning ilmiy maktabi vakillarining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Muallif Toshkentning 2200 yillik tarixini ilmiy asoslash jarayonida O‘rta Osiyo arxeologiya maktabining metodologik va amaliy ahamiyatini yoritadi. Maqolada Masson tomonidan yaratilgan ilmiy maktabning Toshkent tarixini kompleks tarzda, ya’ni arxeologik qazishmalar, yozma manbalar va tarixiy-geografik ma’lumotlar asosida o‘rganishga asos bo‘lgani ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Margarita Filanovich va Yuri Buryakov kabi olimlarning Ming‘o‘rik, Shoshtepa va Choch vohasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari Toshkentning qadimgi urban markaz sifatidagi o‘rnini aniqlashda muhim omil bo‘lgani asoslangan. Maqolada Toshkentning 2200 yillik yubileyi ilmiy xulosa sifatida shakllanishida Masson ilmiy maktabining hal qiluvchi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent, M.E. Masson, ilmiy maktab, arxeologiya, qadimgi shahar, Choch, Ming‘o‘rik, Shoshtepa, M.I. Filanovich, Yu.F. Buryakov, urbanizatsiya, 2200 yillik tarix.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль М.Е. Массона и представителей его научной школы в определении древнего возраста города Ташкента. Автор раскрывает методологическое и практическое значение среднеазиатской археологической школы в научном

обосновании 2200-летней истории Ташкента. Показано, что научная школа, созданная Массоном, заложила основы комплексного изучения истории города на базе археологических раскопок, письменных источников и историко-географических данных. Особое внимание уделено исследованиям М.И. Филанович и Ю.Ф. Бурякова, которые внесли значительный вклад в изучение памятников Мингурик, Шаштепа и историко-культурного развития Чачского оазиса. В статье обосновывается, что именно в рамках этой научной школы были получены ключевые выводы, позволившие научно подтвердить древность Ташкента как крупного урбанистического центра Центральной Азии.

Ключевые слова: Ташкент, М.Е. Массон, научная школа, археология, древний город, Чач, Мингурик, Шаштепа, М.И. Филанович, Ю.Ф. Буряков, урбанизация, 2200-летие.

Annotation. This article examines the role of M.E. Masson and the representatives of his scholarly school in determining the ancient age of the city of Tashkent. The author highlights the methodological and practical significance of the Central Asian archaeological school in substantiating the 2200-year history of Tashkent. The paper shows that Masson's scholarly tradition laid the foundation for a comprehensive study of the city's past through archaeological excavations, written sources, and historical-geographical evidence. Special attention is given to the works of M.I. Filanovich and Yu.F. Buryakov, whose research on Mingurik, Shashtepa, and the Chach oasis played a decisive role in identifying Tashkent as an ancient urban center. The article concludes that the scientific conclusions concerning the antiquity of Tashkent were formed largely within the framework of Masson's archaeological school and its successors.

Keywords: Tashkent, M.E. Masson, scholarly school, archaeology, ancient city, Chach, Mingurik, Shashtepa, M.I. Filanovich, Yu.F. Buryakov, urbanization, 2200-year history.

Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyi 2009-yilda xalqaro miqyosda keng nishonlangan. Ushbu sana Toshkentning jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri ekanini tasdiqlagan muhim tarixiy voqeadir. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyini aniqlash masalasi zamonaviy arxeologiya va tarix fanining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy xulosa Mikhail Evgenyevich Masson asos solgan ilmiy maktab faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Toshkent shahrining 2200 yillik yoshini aniqlash masalasi O‘zbekistonda arxeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda Mikhail Evgenyevich Masson asos solgan O‘rta Osiyo arxeologiya maktabi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masson Markaziy Osiyoda birinchi arxeologiya ilmiy maktabini yaratgan olim sifatida e‘tirof etiladi. U nafaqat keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib borgan, balki ilmiy kadrlar tayyorlash, metodologiya ishlab chiqish va arxeologiyani kompleks fan sifatida shakllantirishga katta hissa qo‘shgan.¹

Ma‘lumki, Masson tomonidan 1940-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti – O‘zMU) arxeologiya kafedrasini tashkil etilgan bo‘lib, u butun mintaqaga uchun ilmiy markazga aylangan. Ushbu kafedra doirasida ilmiy kadrlar tayyorlanib, keyinchalik Toshkent va Choch vohasi tarixini o‘rgangan yirik olimlar yetishib chiqqan.² Xususan, u 1940-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O‘zMU) arxeologiya kafedrasini tashkil etib, butun mintaqaga uchun ilmiy markaz yaratgan.

Masson tomonidan yaratilgan ilmiy maktab Toshkent tarixini o‘rganishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. U shahar tarixini uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida

ilmiy –amaliy anjuman

talqin qilib, urban markazlar turli davrlarda almashib rivojlanganini ilmiy asoslab berdi.³ Ushbu yondashuv keyingi arxeologik izlanishlar uchun metodologik poydevor vazifasini bajardi. Mazkur ilmiy maktabning ahamiyati shundaki, Toshkent tarixi ilk bor kompleks ravishda – arxeologik qazishmalar, yozma manbalar va tarixiy-geografik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Masson o'z tadqiqotlarida Toshkent (qadimgi Choch) hududida shahar madaniyati uzluksiz rivojlanganini ilmiy asoslab bergan.⁴

O'zMU arxeologiya kafedrasida shakllangan ilmiy maktabning eng yirik namoyandalaridan biri Margarita Ivanovna Filanovich hisoblanadi. Uning tadqiqotlari Toshkentning 2200 yillik yoshini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, Ming'orik yodgorligida olib borilgan qazishmalar natijasida milodiy I–VIII asrlarga oid stratigrafik qatlamlar aniqlangan bo'lib, bu yerda uzluksiz shahar hayoti mavjud bo'lganligi isbotlangan.⁵ Filanovich rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar Toshkent hududidagi ilk shahar markazlari shakllanishi masalasini ilmiy asoslashga xizmat qildi. Xususan, Ming'orik va Shoshtepa yodgorliklarida aniqlangan stratigrafik qatlamlar miloddan avvalgi II asrga oid shahar tipidagi manzil mavjud bo'lganini ko'rsatdi. Bu esa Toshkentning kamida 2200 yillik tarixga ega ekanligini ilmiy asoslash imkonini berdi.⁶ Ayriqsa, Ming'orik "Toshkent hududidagi birinchi shahar markazi" sifatida baholanadi.⁷

Masson maktabining yana bir yirik vakili Yuri Fedorovich Buryakov bo'lib, u O'zMU va Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat yuritib, Choch vohasining tarixiy-geografik rivojini chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, Choch vohasi qadimdan Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalaridan biri bo'lib, bu hududda urban madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.⁸

Muayyan jihat shundaki, Toshkentning 2200 yillik sanasi aynan shu ilmiy maktab doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida shakllangan. 2009-yilda nashr etilgan "Toshkentga 2200 yil" nomli xalqaro konferensiya materiallari

ham aynan yangi arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalar asosida ushbu sanani ilmiy jihatdan asoslaydi.⁹ Toshkentning 2200 yillik yubileyi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan bo'lib, UNESCO tomonidan ushbu sana ilmiy asoslangan tarixiy xulosa sifatida qo'llab-quvvatlangan. Bu esa Toshkentning qadimiy urban markaz sifatidagi o'rnini tasdiqlaydi.

Masson tomonidan tashkil etilgan arxeologiya maktabida keyinchalik Markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan ko'plab olimlar yetishib chiqqan. Jumladan, Filanovich, Buryakov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar aynan shu ilmiy muhitda shakllangan bo'lib, ular Toshkent va butun mintaqa tarixini o'rganishda muhim natijalarga erishgan.¹⁰

Shu tariqa, O'zMU qoshidagi O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasi va unda shakllangan Masson ilmiy maktabi Toshkent yoshini aniqlashda markaziy o'rin tutadi. Ushbu maktab doirasida yetishib chiqqan Filanovich va Buryakov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Toshkentning kamida 2200 yillik tarixga ega ekanligini ilmiy asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шамукарамова Ф.Ш. Михаил Евгеньевич Массон и археологическая школа Узбекистана // INFOLIB (Аxborot-kutubxona jurnali). – Toshkent, 2019. – № 3. – В. 64–69.
2. Шамукарамова Ф.Ш. Mikhail Evgenyevich Masson va O'zbekiston arxeologik maktabi // O'zbekiston arxeologiyasi. – 2019. – № 3. – В. 64–69.
3. Массон М.Е. Прошлое Ташкента. – 1954.
4. Филанович М.И. Ташкент: Зарождение города и развитие городской культуры в древности и средневековье // Столице Узбекистана Ташкенту – 2200 лет: Материалы Международной научной конференции. – Ташкент: Издательство «Фан» Академии наук Республики Узбекистан, 2009. – В. 52–54.
5. М.И. Филанович ва бошқалар. Мингўрик қазилмалари. – В. 58.

6. M.I. Filanovich, G.I. Bogomolov, S.R. Ilyasova. New facts on the ancient history of Tashkent. – B. 52.
7. O‘zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda: Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: Fan, 2009. – B. 52–54.
8. Ю.Ф. Буряков. Ancient Tashkent at a Crossroads of the Great Silk Road // O‘zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda: Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: Fan, 2009. – B. 80–85.
9. Ташкенту 2200 лет. Халқаро илмий конференция материаллари. – T.: Fan, 2009. – B. 7.
10. Шамукарамова Ф.Ш. Michael Evgenyevich Masson va O‘zbekiston arxeologik maktabi // INFOLIB (Axborot-kutubxona jurnali). – 2019. – № 3. – B. 64–69.